PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA O‘QITUVCHILARNING O‘RNI

To‘raqulova Malohat Baxodir qizi, Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,
Turaqulova Malika Baxodir qizi, Mirzaobod kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta’lim muassasalarida xorijiy til darslarida o‘qituvchining jalb qila olish mahoratlari va turli metodlar tahlil qilingan. Dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar asosida o‘quvchilarni qiziqtirish usullari haqida ma’lumotlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagog, yo‘naltiruvchi, pedogogik tajribalar, pedogogik texnologiyalar, zamonaviy yondashuv, tinglab tushunish, yozma nutq, og‘zaki nutq, mustaqil ta’lim.

THE ROL OF TEACHERS WHO TEACHS FOREIGN LANGUAGES AT PROFESSIONAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation. This article analyzes the teacher’s ability to engage in foreign language classes in professional educational institutions and various methods. Also, the article provides information about ways to interest students in the organization of lessons based on modern technologies.

Keywords: pedagogue, leader, pedagogical experience, pedagogical technology, modern approach, listening, writing, speaking, selfr study.

“*Chala bilim egasi bo‘lgandan ko‘ra, bilimsizlik afzaldir*”
(*Abu Ali Ibn Sino*)

Kirish. Biror sohani o‘rganishni maqsad qilgan inson beixtiyor o‘qituvchiga muhtojlik sezadi. Tillar sohasida esa bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yangi tilni o‘rganmoqchi bo‘gan o‘quvchi avvalo, ishni qayerdan boshlashni bilmaydi. Shunday paytda o‘qituvchi o‘quvchiga yo‘lboshlovchilik qiladi.

O‘qituvchi – pedagog so‘zining asl ma’nosi ham “bolani yo‘lda kuzatib boruvchi, bola yetaklovchi” degan ma’noni anglatadi. Pedagoglar haqida uzoq tarixga yuzlanadigan bo‘lsak, faylasuflar makoni bo‘lgan Yunoniston davlatlarida ham o‘qituvchilar o‘z bilim va tajribalari orqali xalq ichida hurmatga sazovor bo‘lishgan. Pedagoglarni nafaqat o‘quvchilar, balkim ularning ota-onalari ham ehtirom bilan e’zozlashgan. O‘sha davrlarda ta’lim olish uchun yetarlicha sharoit bo‘lmaganligi va shogirdlikka tushish juda qiyin bo‘lganligi uchun ta’lim olayotgan o‘quvchilar ham

pedagoglar bergan ta’limni va pedagoglarni tuganmas bilim sohiblari deya hisoblashgan.

Bugungi kunda har bir soha rivojlanib yangiliklar kirib kelmoqda. Va shuning bilan birga xorijiy tillar, xususan ingliz tili ham ona tili, tarix va boshqa fanlari kabi muhim o‘rinni egalladi. Bugun O‘zbekistonda 60 % yoshlarning 50 % xorijiy til sifatida ingliz tilini tanlayapti va bu tilda istiqbolli kelajaklarini ko‘ra olyapti. Ular orasida xalqaro chet tilini bilish darajasi sertifikatlari, ya’ni IELTS, TOEFL yoki MULTI LEVEL milliy sertifikatlarini qo‘lga kiritganlarni ham ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Albatta, bugungi kun yoshlarining bunday g‘alabalarga erishishiga ham qaysidir ma’noda bilimli o‘qituvchilarning pedogogik tajribalari va metodlari katta hissa qo‘shadi. Shuni ham ta’kidlash kerak-ki, bilim olish va bilim yo‘lidan borish hammaning ham qo‘lidan keladigan oson ishlardan emas. Buning uchun o‘quvchidan aniq maqsad, e’tibor va qat’iyatli yondashuv talab qilinadi. Shuningdek, bugungi kunda yurtimizda ta’lim sifatini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan islohatlar ham o‘z samarasini ko‘rsatayapti. Xususan, kasb-hunar maktablarida 17-18 yoshli o‘quvchilar orasida ham xorijiy tillarga chanqoqlik bilan dildan o‘rganadiganlar talaygina. Muhtaram yurtboshimiz tomonidan maktablarda bitiruvchi o‘quvchilar kamida ikkita xorijiy tilni mukammal darajada o‘zlashtirishi kerak ekanligi ham ta’kidlangan.

Chet tillarini o‘rganish va uni ommalashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori qabul qilingan. “Yoshlarni qo‘llab - quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili’’ davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rganishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedogoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida:

- aholi orasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta’limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o‘qituvchilarda zamonaviy o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- hududiy tarmoqlar va ta’lim muassasalarining xorijiy tillarni o‘zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyojlarini tahlil qilish natijalari asosida talab yuqori bo‘lgan xorijiy tillarni o‘qitishni tashkillashtirish;

- xorijiy tillarni o‘qitish sohasida “bog‘cha - maktab - oliy ta’lim tashkilot - korxona” tamoyilidagi uzluksiz ta’lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;

-xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, tilning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontent yaratilishini tashkil etish;

- davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo‘nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko‘maklashish;

-hududlar, tarmoqlar, davlat organlari va ta’lim tashkilotlari kesimida xorijiy tillarni bilish reytingini yuritish, xorijiy tillarni o‘rganishni yanada ommalashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Xorijiy tillarga o‘qitishning sifatini oshirish maqsadida:

- 2021-yil 1-sentabrdan boshlab xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi natijaga erishgan maktablarni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini ta’sis etildi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 50 million so‘mgacha mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan bir martalik subsidiya ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

- ta’lim muassasalarining kamida C1 darajadagi yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar o‘qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 % miqdorida qo‘shimcha ustama haqi to‘lab borish amaliyoti tadbiq etildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bu kabi qarorlarning tub maqsadi, albatta, yoshlarga va aholiga kengroq imkoniyatlar yaratishdir. Ushbu qarorning 3-bandiga qaraydigan bo‘lsak, xorijiy tillarni o‘qitishning sifatini oshirish uchun va o‘quvchilarni rag‘batlantrish maqsadida xatto, Prezident mukofoti ta’sis etilgan. Va bunday imtiyozdan nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar ham chetda qolmagan. Qarorning 5-bandiga qaraydigan bo‘lsak, chet tilidan milliy yoki xalqaro darajadagi C1 darajadagi sertifikat olgan chet tili o‘qituvchilarga har oyda 50 % ustama olishi belgilab qo‘yilgan. Demak, bugun o‘z ustida ishlashi va ilg‘or pedodogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tishi uchun o‘qituvchilarga eng chekka hududlarda ham yetarlicha sharoitlar yaratilgan.

To‘g‘ri, bugun hamma kerakli ma’lumotlarni internet tarmoqlaridan topishning imkoni bor va bu “mustaqil o‘rganish” yo‘lini tanlaganlar uchun ancha samarali usuldir. Ammo, ba’zan ishonchli ma’lumotni topish qiyin bo‘lgan vaqtda o‘qituvchi yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajarib beradi. Masalaga boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, ba’zi o‘quvchilar o‘qituvchining rag‘batlantirishi va yo‘l ko‘rsatishiga muhtoj bo‘ladi. Hozir maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ham xorijiy tillar o‘qitilib kelinyapti. Ayni mana shu davrda bolaning ingliz tiliga qay darajada qiziqishi ham o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qoladi. “Yoshlikda olingan bilim - toshga o‘yilgan naqsh kabidir” degan maqol ham xalqimizda bejizga paydo bo‘lmagan. Lekin yosh bolalar xatto, xalq ta’limi va professional ta’limdagi maktablar o‘quvchilari ham yoshiga qarab o‘yinqaroqlik harakterini to‘liq tark etmagan bo‘ladi. Yapon yozuvchisi Ibuka Masaroning “Uchdan keyin kech” asarida keltirilishicha bolaga uch yoshga to‘lguncha uchtagacha xorijiy tilni o‘rgatish mumkin va bu fanda isbotlangan ekan. Har qanday o‘rganilishi maqsad qilingan yangi fan, yangi yo‘nalish vaqt, shug‘illanish va sabr talab qiladi. Shunday ekan o‘qituvchiga ko‘proq

mas’uliyat yuklanadi. Zamon rivojlanib borar ekan ananviy dars o‘tish yo‘li o‘zini oqlamay qoldi. O‘quvchi biror sohani qay darajada qiziqib egallashi, avvalo, qiziqtirib o‘tilgan dars mashg‘ulotlari va darsni qiziqtirib o‘tadigan o‘qituvchiga bog‘liq.

Hozirda har qanday xorijiy tilni o‘rganishda to‘rt yo‘nalishda **reading** (*o‘qib tushunish*), **listening** (*tinglab tushunish*), **writing** (*yozma ish*) va **speaking** (*gapirish*) ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu to‘rtta ko‘nikmada eng zo‘ri bo‘lish uchun esa avvalo, boshlang‘ich va umumiy bilim ko‘nikmalari yetarlicha bo‘lishi kerak. Masalan, professional ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar uchun ingliz tili umumiy grammatikasini oshirishda Muhammad G‘afforov va Robiya Qosimovalarning “Ingliz tili grammatikasi” nomli kitobini mukammal deb ayta olamiz. Shuningdek, bilim ko‘nikmalarini mashqlar orqali mustahkamlash uchun eng zo‘r kitoblar sifatida Cambridge Universiteti professori Raymond Murphyning “Essential Grammar in Use 1”, “Essential Grammar in Use 2” kitoblari hamda o‘zbek tilshunosi F. V. Rahmatovning “English Grammar in Practice” kitoblari katta yordam beradi.

Mashg‘ulotlar jarayonida tilning faqat bir sohasi bilan shug‘ullanish har qanday o‘quvchini zeriktirib qo‘yishi aniq. Malasan, tinglab tushinish “listening” yo‘nalishi bo‘yicha 80 daqiqa davomida 15-20 daqiqa shug‘illanish yetarli bo‘ladi. Yoki yozma nutqda ishlatiladigan darajasi yuqori so‘zlarni yaxshiroq eslab qolish uchun og‘zaki nutqda qanday vaziyatlarda qo‘llash usullarini ham faqatgina o‘qituvchilargina tajribalar orqali anglab, o‘quvchilariga yetkazib bera oladi. Yoki “o‘qib tushunish” reading yo‘nalishini yaxshi o‘zlashtirish uchun muhim jihatlar talaygina. O‘quvchilar reading bilan ishlashni boshlashganida juda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishadi va reading ishlash ular uchun yoqimsiz mashg‘ulotga aylanadi. Shunday vaziyatda o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirish mas’uliyati beixtiyor o‘qituvchining zimmasiga tushadi. Reading qobiliyatini oshirish uchun avvalo, lug‘at boyligiga katta e’tibor qaratish kerak. Lug‘at yaxshi esda qolishi uchun esa bitta so‘zning o‘zini yodlash emas, balkim o‘sha so‘zga aloqador so‘zlar bilan birgalikda so‘z birikmasi holida yodlash eng samarali usuldir. Masalan, beautiful – chiroyli, a beautiful girl – chiroyli qiz. Bundan tashqari, lug‘at yodlash uchun yana bir sinalgan usul bir o‘zakdan tashkil topgan ammo har xil ma’no beruvchi so‘zlarni bir paytning o‘zida yod olish. Masalan, nation – millat, national – milliy, nationalizm – ozodlikka kurashuvchi, nationalistic – millatchi, nationalization – milliylashtirish, kabi.

NATIJALAR

So‘zlarni birikmalar yordamida yodlash readingni osonroq va tezroq tarjima qilishga katta yordam beradi. Yangi til o‘rganishda hamma o‘quvchilar asosan, lug‘at yodlashda qiyinchiliklarga va tushunarsizliklarga duch kelishadi. Ochiq aytganda esa eng katta kamchilik yangi tilning glossary qismi bilan bog‘liq bo‘ladi. Til o‘rganuvchilar bunday mashaqqatga oldindan o‘zlarini moslashtirib boshlashi tavsiya qilinadi va IELTS instruktorlarining aytishicha, readingga mehr berish nafaqat readingning rivojlanishiga balki, listening va writing skillarining ham yuqori bandlarga erishishiga yordam beradi. O‘quvchilarga ma’lum bir til materiallaridan

foydalanishga yo‘naltirilgan yetarlicha batafsil bayonotlarni tuzish ko‘nikmalarini va yozish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan funksional va semantik qo‘llab - quvvatlashlar bilan birgalikda o‘yin ham eng aniq natijalarni beradi.

XULOSA

Kasb - hunar maktablari o‘quvchilari 17-18 yoshli o‘smir o‘g‘il-qizlar bo‘lib, har biri alohida e’tibor va rag‘batlantirishga muhtoj. Tan olish kerak-ki, yoshidan qatiy nazar boshlangan ish boshqalar tomonidan iliq qabul qilinsa, bajaruvchining o‘ziga ishonchi bir hissa oshadi. O‘quvchining ichki dunyosi, uning o‘zini tutishi bilan birgalikda u egallamoqchi bo‘lgan kasb yoki qaysi yo‘nalishga qiziqishi ham o‘qituvchi tomonidan e’tiborga muhtoj soha hisoblanadi. Xorijiy til o‘qituvchilari dars jarayonida faqatgina an’anaviy tarzda dars emas balki, o‘quvchilar zerikkan vaqtida ham o‘rganilayotgan tildan uzoqlashib ketmagan holda “Warm-up” o‘yinchalari yoki hayolini tezroq yig‘ishtirishi uchun hizmat qiladigan “Tezkor savol-javob” usullaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Va ta’kidlab o‘tish kerakki, xorijiy tillar o‘qituvchilari bir sinfni ikki guruhga bo‘lib dars mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanadilar. Agar bir guruhchada 15 nafar o‘quvchi darsga qatnashadi, deb olsak, bitta o‘qituvchi 80 daqiqa davomida o‘sha 15 nafar bolaning har biriga vazifa berishi va og‘zaki savol-javob qilishi bundan tashqari uning bajargan vazifasi va intilishlarini to‘g‘ri rag‘batlantirish uchun ham unga baho berishi, agar mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar tomonidan xato – kamchiliklarga yo‘l qo‘yilsa ham tanaffusdan 5 daqiqa oldin o‘quvchilarga tushuntirilib u ham munosib tarzda baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safo Ochil, Komiljon Hoshimov. “O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi”. Toshkent.; “O‘qituvchi”. 1999 y.
2. Masaru Ibuka. “Uchdan keyin kech”. Toshkent: Akademnashr, 2022 y.
3. https://www.lex.uz.
4. https://www.arxiv.uz.